MILLIY MEROS AKADEMIYASI
NATIONAL HERITAGE ACADEMY

MADANIYATSHUNOSLIK
VA NOMODDIY MADANIY MEROS
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

“Asliyat — asl manba, asl qadriyat, asl meros”

ASLIYAT

ILMIY AXBOROTNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

Ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy jurnal



2026

1-JILD | 1-SON

ASLIYAT
Ilmiy axborotnomasi
https://ijacaes.uz/index.php/Asliyat/index

O‘ZBEK MAROSIM QO‘SHIQLARINING ILMIY JIHATDAN TASNIFLANISHI

Asatillo Sunnatillayev,
Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi, mustaqil izlanuvchi (PhD)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek marosim qo‘shiqlarining folklorshunoslik nuqtayi nazaridan ilmiy tasnifi, ularning janriy xususiyatlari, funksional vazifalari va marosim tizimidagi o‘rni tahlil qilinadi. Marosim qo‘shiqlarining oilaviy-maishiy va mavsumiy marosimlar bilan bog‘liq turlari, ularning ijro muhiti, poetik tuzilishi, obrazlar tizimi hamda badiiy-estetik xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, marosim qo‘shiqlarini tasniflashda tarixiy-genetik, funksional va janriy mezonlarning ahamiyati ochib beriladi. O‘zbek folklorshunosligida mavjud ilmiy qarashlar umumlashtirilib, marosim qo‘shiqlarining tasnifiy belgilari tizimlashtiriladi. Tadqiqot natijalari marosim folklorini o‘rganish, uning janriy tarkibini aniqlash va milliy madaniy merosdagi o‘rnini ilmiy asosda baholashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *marosim folklori, marosim qo‘shiqlari, tasnif, janr, oilaviy-maishiy marosimlar, mavsumiy marosimlar, folklorshunoslik, poetika, an’ana.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается научная классификация узбекских обрядовых песен с точки зрения фольклористики, анализируются их жанровые особенности, функциональное назначение и место в системе обрядов. Особое внимание уделяется видам обрядовых песен, связанным с семейно-бытовыми и календарно-сезонными обрядами, условиям их исполнения, поэтической структуре, системе образов и художественно-эстетическим особенностям. Также раскрывается значение историко-генетических, функциональных и жанровых критериев при классификации обрядовых песен. Обобщаются существующие научные подходы в узбекской фольклористике и систематизируются основные классификационные признаки обрядовых песен. Результаты исследования способствуют более глубокому изучению обрядового фольклора, определению его жанрового состава и научной оценке его места в национальном культурном наследии.*

Ключевые слова: *обрядовый фольклор, обрядовые песни, классификация, жанр, семейно-бытовые обряды, календарно-сезонные обряды, фольклористика, поэтика, традиция.*

Abstract. *This article examines the scientific classification of Uzbek ritual songs from the perspective of folklore studies, focusing on their genre characteristics, functional purposes, and role within the ritual system. Particular attention is paid to the types of ritual songs associated with family and domestic ceremonies as well as seasonal rituals, their performance context, poetic structure, system of images, and artistic-aesthetic features. The study also highlights the significance of historical-genetic, functional, and genre-based criteria in the classification of ritual songs. Existing scholarly approaches in Uzbek folklore studies are generalized, and the main classificatory features of ritual songs are systematized. The results of the research contribute to a deeper understanding of ritual folklore, the identification of its genre structure, and the scholarly assessment of its place in the national cultural heritage.*

Keywords: *ritual folklore, ritual songs, classification, genre, family and domestic rituals, seasonal rituals, folklore studies, poetics, tradition.*

O‘zbek xalq qo‘shiqlari og‘zaki ijodimizning qadimiy lirik janri hisoblanadi. Maqol, matal, topishmoq bilan bir qatorda xalq qo‘shiqlarining Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu tug‘otit turk” kitobidan joy olishi ham bejiz emas.[25] Bu, bir tomondan, xalq qo‘shiqlarining o‘sha olis davrlarda ham rang-barang bo‘lganligi, tarixiy ildizlari juda qadimiy ekanligidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan, ularni tasniflashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, lirikada asar yaratuvchining atrof-muhitdan ro‘y berayogan voqealarga nisbatan his-tuyg‘ulari orqali bildirgan munosabati aks etadi. Demak, qo‘shiqlarni aytuvchining ruhiy ifodasi sifatida qabul qilish mumkindir. Chunki hayot taqozosi bilan ro‘y bergan voqea-hodisadan xursand bo‘lgan kimsa o‘z mamnunligini va dardini qo‘shiq orqali ifodalashga intiladi. Shuning uchun ham xalq maishiy hayotida muhim hisoblangan to‘y ham, aza ham qo‘shiq san’ati bilan bog‘langandir.

O‘zbeklarda qo‘shiq keng ma’noda xalq poeziyasi, xalq lirikasi demakdir. Qo‘shiqlar xazinasining asosi badiiy yuksak an’anaviy namunalardan iborat. Umumfolklordagi kabi xalq lirikasida ham poetika an’anaviy, an’ana poetik-lashgandir. Shu sababli an’anaviy qo‘shiqlarning tashqi – surat ma’nosi bilan birga zamonaviy ijrochi va tinglovchi ilg‘ab ola olmaydigan, xalqning qadim inonch-tasavvurlari, marosimlari, irimlari bilan bog‘liq siyrat ma’nolari ham bor[26].

Marosim qo‘shiqlari esa xalq musiqa ijodiyotining eng qadimiy, yashovchanligi jihatidan eng barqaror ko‘rinishlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham marosim qo‘shiqlarida muayyan xalqning turmush tarzi, etnik tarixi, urf-odatlari, e’tiqodi, uning o‘tmishi butun o‘zligi bilan namoyon bo‘ladi. Har bir marosim o‘ziga xos aytimlar, cholg‘u kuylari va chaqiriqlar, qo‘shiq va so‘z komponenti birgalikda o‘ziga xos marosim qo‘shiqlarini tashkil etadi.

Qo‘shiq turmushda ro‘y bergan ijtimoiy hodisalarga hozirjavoblikdir. Qo‘shiq san’atning insoniyat tomonidan eng oldin o‘ylab topilgan turi deb taxmin qilinadi. Rivoyat qilishlaricha, yer yuzidagi birinchi qo‘shiq Hobil ismli o‘g‘li o‘lganda Odam ato tomonidan aytilgan marsiya bo‘lgan ekan. Darhaqiqat odamzod tug‘ilgan kunidan boshlab alla eshitadi, o‘lganda yig‘i bilan kuzatiladi.

Xalq qo‘shiqlarni qayg‘uli chog‘da ham, shodu-xurramlik paytida ham ijod etib, kuyga solib aytadi. O‘zbek xalqi orasida «Kuygan ham qo‘shiqchi, suygan ham qo‘shiqchi» yoki «Suygan qo‘shiqchi bo‘lar, kuygan o‘lanchi» degan ta’birlar maqol sifatida yuritiladi.

Pol Lafarg qo‘shiqlarning tarixiy ahamiyatini uqtirib, shunday degan edi: “ … mevali daraxtning shoxlarida ochilgan gul singari xalq og‘zidan chiqqan bu qo‘shiqlar yuksak tarixiy ahamiyatga ega … Bu qo‘shiq xalq ko‘nglidagi kayg‘u-xasrat va shodliklarining yo‘doshi, uning bilim qomusidir…”[27]

Xalq qo‘shiqlarining paydo bo‘lishi va rivojida mifo-poetik tafakkur kasb etgan. Mifologik mushohadaning badiiy ifodasini esa, an’anaviy qo‘shiqlar tashkil etadi.

[25] Mahmud Qoshg‘ariy. Devonu tug‘otit turk. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutalibov.
[26] Musaqulov A.O‘zbek xalq lirikasi. T.: Fan, 2010. 10-b.
[27] Alaviya M. O‘zbek xalq qo‘shiqlari T. , 1959. 21-b.

Xalq lirikasining paydo bo‘lishi, rivojida mifologik tassavurlarning takror-takror mushohada qilingan badiiy ifodalari muhim ahamiyat kasb etgan va shunday bo‘lib qolmoqda[28]. Biroq hayot muttasil harakatda bo‘lgani bois unga hozirjavoblik bilan yaratilayotgan, yangi zamon va uning kishilari ruhiyatini ifodalayotgan zamonaviy qo‘shiqlar ham ijod qilinmokda. Oqibatda keyingi yillarda istiqlolga shukronalik bilan to‘lib - toshgan xalqimizning orzu - o‘ylari, kechinmalarini ifodalovchi yangi qo‘shiqlar bot - bot quloqqa chalina boshladi. Ularning an’anaviy xalq qo‘shiqlari ruhida yaratilganligi jozibadorligini ta’minlovchi omil bo‘layotir. An’anaviy xalq qo‘shiqlarida tashqi ma’no bilan bir qatorda tinglovchi birdaniga ilg‘ay olishga qiynaladigan, xalqning tarixiy-mifologik dunyoqarashi, ibtidoiy tasavvur - tushunchalari, irimlari, urf- odat va e’tiqodlariga daxldor ichki ma’nosi ham bo‘ladi. Shu xususiyati bilan ular hozir yaratilayotgan qo‘shiqlardan birmuncha farqlanib turadi. Ammo, hozirda yaratilayotgan qo‘shiqlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularning bevosita o‘tmishga daxldor bo‘lgan unsurlardan oziqlanayotganligiga guvoh bo‘lamiz. Bu unsur hozirgi qo‘shiqlarning poydevori bo‘lib xizmat qilayotganiga hech shak - shubha yo‘q. Negaki, o‘tmishi bo‘lmagan xalqning ertangi kuni ham mavjud bo‘lmasligi ayni haqiqat.

Qo‘shiq poeziyaning eng ko‘p tarqalgan va qadimgi turlaridan biridir. Yozuvning yaratilishi va yozma adabiyotning yuzaga kelishidan ilgari ham qo‘shiq mavjud bo‘lib, yozma adabiyotdagi poeziya dastlab shuning zaminida yaratilgan.

Xalq poeziyasi lirik tur namunalarida xalqning qadimiy inonch-e’tiqodlari, urf-odat, marosim va irimlari ko‘rinishlari badiiy ko‘chimlar sifatida sezilarli daraja saqlanib qolgan. Aslini olganda, tadqiqochi xalq og‘zaki ijodining qaysi bir turi, janrining tarixiy ildizlarini o‘rganishga qo‘l urmasin, u, albatta, an’anaviy tassavurlar, urf-odat, marosimlar, xalqning magik-mifologik tafakkuriga duch keladi. Shu sababli, jahon xalqlari sa’natining barcha sohalari, xususan, folklorining asosi bir zaminga borib taqaladi[29].

M.Gorkiy aytganidek, “So‘z san’atning boshlanishi folklordadir”.[30]

Qo‘shiq istilohi ikki ma’noda qo‘llaniladi, u keng ma’noda xalq poeziyasini anglatsa, tor ma’noda xalq lirikasi shaklini, janrini ifodalaydi. Tojikcha “Surud”, qoraqalpoqcha “Qo‘siq”, azorbayjoncha “Qo‘shma” va uyg‘urcha “Qo‘shoq” istilohlari estetik mohiyat kasb etadi. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida shunday to‘rtlik bor:

Turkan qatun qutyog‘a,
Tergur menden qoshyog‘a.
Ajg‘ul sizni tabug‘chi,
Otnur jaqi tabug‘.[31]

Mazmuni:

Turkan xotin qoshig‘a,
Mendan yetkur she’r.
Xizmatga xodimingiz,
Rost deb, payom ber.

[28] Еремина В.И. Ритуал и фолклор. – Л.: Наука, 1991. С.Б - 3-15.
[29] Musaqulov A.O‘zbek xalq lirikasi. T.: Fan, 2010. 12-b.
[30] Alaviya. M. O‘zbek xalq qo‘shiqlari T. , 1959. 32-b.
[31] Mahmud Qoshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. 1 - tom. – T. : Fan, 1960. 357-b.

Bu akademik A.Qayumovning she'riy tahlili. Chindanda, "Qoshiq" so'zi dastlab "maqtov", "alqov" ma'nosida qo'llangan. Bu istiloh Yusuf xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida fonetik o'zgarishga uchragan holda "Qoshug'" shaklini olgan bo'lsa Xorazmiyda "qo'sh" shaklini olgan.

Turkiy xalqlarda "qo'sh" so'zi uch ma'noda: kuylamoq, qo'sh qo'shmoq – yer haydab, ekin ekmoq va juft ma'nolarini bildiradi. Har uch ma'no ham bir-birini inkor etmaydi.[32]

"Qo'sh" mavsum, ya'ni bahor marosimida ilohlarni ulug'lab aytilgan qutlov, alqovdir (Saxa turklarida shomonlik qo'shig'i – kuturuu so'zi ku – ruh, uruu – ulug'lamoq, qutlamoq ma'nolarini anglatadi. Shuning uchun "kuylamoq"ning bevosita hosildorlik kulti bilan aloqadorligi, ekin-tikin payti bu qo'shiqning kuylanishi albatta shart bo'lgan.[33]

Ma'lumki, qo'shiqlar asosan to'rtliklardan tashkil topgan, Ikki misraning birikib, juftlik, ya'ni "qo'shiq" hosil qilish shunchaki tasodif emas.[34]

Qo'shiq kishining ongi va hissiyotlariga ta'sir etish qudratiga ega. Aksariyat qo'shiqlarda xalqning urf-odati, milliy an'analari, axloq normalari o'z aksini topgan. Xalq qo'shiqlarida voqelik garchi yakka shaxsning kechinmalari aks ettirilsa-da, biroq bu kechinmalar orqali ommaning, ko'pchilikning his-tuyg'ulari bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi.

O'zbek xalq qo'shiqlari yaxlit tizim holatida shakllangan bo'lib, shakliy xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Olimlar K.Imomov, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, O.Safarovlar hammuallifligida nashrga tayyorlangan "O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi" kitobida ular janr mansubligi, ijro maqsadi, o'rni va vazifasi jihatidan ikki katta gurhga bo'linadi:

1. Marosimga aloqador xalq qo'shiqlari yoki marosim folklori: mavsumiy, oilaviy-maishiy va so'z magiyasiga mansub marosimlarga daxldor qo'shiqlarni o'z ichiga oladi.

2. Marosimga aloqasi bo'lmagan xalq qo'shiqlari yoki nomarosimiy folklor, bu guruhga mansub qo'shiqlar ham janriy shakli, ijro xususiyati va motivlari hamda ijtimoiy estetik vazifasiga qarab to'rt ko'rinishda namoyon bo'luvchi mehnat qo'shiqlar, lirik qo'shiqlar, tarixiy qo'shiqlar va termalarni qamrab oladi.[35]

Ammo O.Madayevning "Xalq og'zaki poetik ijodi" kitobida ushbu tasnifning boshqacharoq ko'rinishiga duch kelamiz. Ya'ni, ustoz xalq qo'shiqlarini quyidagi turlarga bo'lib tasnif qilishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

1 . Mehnat qo'shiqlari
2 . Mavsum - marosim qo'shiqlari
3 . Lirik (ishqiy) qo'shiqlar

---

[32] Eshonqulov J. Nomoddiy madaniy meros va o'zbek xalq qo'shiqlarining tadqiqi masalalari // «Nomoddiy madaniy merosni ta'lim tizimiga tatbiq etish» Respublika ilmiy-amaliy seminar materiallari. Mas'ul muh: Axmedova O.M. - Toshkent; Navro'z- 2015. 23-b.

[33] Eshonqulov J. Nomoddiy madaniy meros va o'zbek xalq qo'shiqlarining tadqiqi masalalari // «Nomoddiy madaniy merosni ta'lim tizimiga tatbiq etish» Respublika ilmiy-amaliy seminar materiallari. Mas'ul muh: Axmedova O.M. - Toshkent; Navro'z- 2015. 23-b.

[34] Eshonqulov J. Nomoddiy madaniy meros va o'zbek xalq qo'shiqlarining tadqiqi masalalari // «Nomoddiy madaniy merosni ta'lim tizimiga tatbiq etish» Respublika ilmiy-amaliy seminar materiallari. Mas'ul muh: Axmedova O.M. - Toshkent; Navro'z- 2015. 24-b.

[35] Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. T. ; Musiqa, 2010. 82-b.

4 . Tarixiy qo‘shiqlar.[36]

Mazmunan mehnat jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan qo‘shiqlar mehnat qo‘shiqlari deb ataladi. Mehnat qo‘shiqlari xalqimizning qo‘shiqchilik repertuarida alohida va mustaqil o‘rin tutadi. Mehnat qo‘shiqlarining mazmun-mundarijasini, janr xususiyatlarini mehnat turlari va uni amalga oshirish jarayoni belgilaydi. Mehnat qo‘shiqlari o‘ziga xos ohangda sozsiz ijro etiladi.

Mehnat xalq she’riyatining eng qadimiy shakllaridan biridir. Dastlabki namunalari Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” kitobi orqali bizgacha yetib kelgan. Mehnat qo‘shiqlari ibtidoiy insonning mehnat faoliyati bilan bevosita aloqadorlikda vujudga kelgan va taraqqiy topa borgan.

B.Sarimsoqov fikricha, mehnat qo‘shiqlarining tarixiy taraqqiyoti uch bosqichda kechgan:

1. Dehqonchilik bilan bog‘liq qo‘shiqlar.
2. Chorvachilik bilan bog‘liq qo‘shiqlar.
3. Hunarmandchilik bilan bog‘liq qo‘shiqlar.[37]

Tadqiqotimizning asosiy ob’ekti bo‘lgan mavsum-marosim hamda oilaviy-maishiy marosim qo‘shiqlari hisoblanadi. “Mavsum” qo‘shiqlari qish, bahor, yoz, kuz fasllari bilan bog‘liq. Marosim esa diniy yoki an’anaviy urf-odatlar munosabati bilan o‘tkaziladigan tadbir, yig‘in demakdir.

“Navro‘z qo‘shiqlari”, “Sust xotin”, “Choy momo”, “Yomg‘ir chaqirish”, “Shamol chaqirish”, “Shamol to‘xtatish” kabi mavsumiy marosim qo‘shiqlari, “Yor-yor”, “O‘lan”, “Kelin salom”, “Marsiya” kabi oilaviy marosim qo‘shiqlari badiiy mukamallik jihatidan so‘z san’ati namunalari talabiga to‘liq javob beradigan she’rlardan iboratdir.

Xalq qo‘shiqlarining yana bir yirik turi bu lirik qo‘shiqlardir. Ular badiiy jihatdan yuksakligi, an’anaviyligi, ommaviyligi bilan alohida ajralib turadi. Lirika so‘zi “lira” deb nomlanuvchi cholg‘u asbobining nomidan kelib chiqqan, Qadimda Yunonistonda lira chalib kuylash diniy marosimlarning tarkibiy qismi sanalgan.

Lirika badiiy adabiyotning har ikkala formasi – og‘zaki va yozma ijodga xos adabiy turdir. Biroq ular o‘rtasida umumiyliklar bilan birga jiddiy farqlar ham mavjud[38].

Ommaviy janr bo‘lgan lirik qo‘shiqlarning asosiy mazmunini ishq – muhabbat, insonning ruhiy olami va ichki kechinmalarini tasvirlash tashkil etadi. Lirik qo‘shiqlar bir yoki bir necha kishi tomonidan ijro etiladi. Ko‘pincha bunday qo‘shiqlar mustaqil to‘rtliklar tarzida uchraydi. Uning eng muhim tomoni shundaki, real voqelikni shaxsning (lirik qahramonning) sub’ektiv kechinmalari orqali aks ettiriladi va faqat kuylash uchun yaratiladi. Kishi qalbida tug‘ilgan his-tuyg‘ularni muayyan obrazlar va predmetlar tasviri orqali badiiy ifoda etish jihatidan epik poeziyadan farq qiladi.

Tarixiy qo‘shiqlar o‘zbek xalq poeziyasining alohida turkumini tashkil etadi. Bu turkumga kiruvchi qo‘shiqlar juda qadimiy bo‘lib, ularda tarixiy-siyosiy voqea-hodisalar, real shaxslar faoliyati lirik-epik yo‘nalishda talqin etiladi. Shu tufayli ular tarixiy qo‘shiq atamasi bilan yuritiladi. Asosan hikoyaviy xarakterga ega bo‘lgan tarixiy qo‘shiqlar o‘zbek

[36] Madayev O, Sobitova T. Xalq og‘zaki poetik ijodi. T;. Sharq , 2010. 77-b.
[37] Sarimsoqov B. Qo‘shiqlar / O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – T. : O‘qituvchi, 1990. 144-b.
[38] Musaqulov A.O‘zbek xalq lirikasi. T.: Fan, 2010. 17-b.

folklorshunosligida alohida janr sifatida e'tirof etiladi. Ularning asosiy mazmun-mundarijasini tarixda bo'lib o'tgan va xalq hayotida ma'lum iz qoldirgan tarixiy voqea-hodisalar, dalillar va real tarixiy shaxslar faoliyatiga aloqador talqinlar tashkil etadi.

Marosim qo'shiqlarini ilmiy tasnif etish – mavjud janrlarning o'ziga xos tabiati, uning janrlar tarkibidagi tutgan muayyan o'rnini belgilab beradi.

Olima M.Alaviyaning o'zbek marosim folklorini ilmiy tadqiq etish borasidagi izlanishlari 1974-yilda chop ettirilgan "O'zbek xalq marosim qo'shiqlari" nomli monografiyasida umumlashtirilgan. Ushbu monografiyada qo'shiqlarning o'zbek xalqi maishiy hayotidagi turli marosimlarda tutgan o'rni va estetik vazifasi haqida so'z boradi. M.Alaviya ushbu monagrafiyasida qo'shiqlarni quyidagicha tasniflaydi:

1. Lirik qo'shiqlar.(Terma-to'rtlik)
2. Mehr baytlari.
3. Termalar.
4. Mehnat qo'shiqlari.
5. Mavsum-marosim qo'shiqlari.
6. To'y marosim qo'shiqlari.

Lirik qo'shiqlar xalq qo'shiqlarining ma'lum bir turiga – ishq muhabbat mavzusida yaratilgan, bir kishi yoki bir necha kishi tomonidan ijro etiluvchi mustaqil to'rtliklardan iborat og'zaki she'riy asarlarga nisbatan aytiladi. Real voqealikni shaxsning kechinmalari orqali aks ettiruvchi, sevgi va vafo, hijron va sog'inch, alam va o'kinch, kishilar qalbidagi o'tli dard tufayli vujudga kelgan, faqat kuylash uchun yaratilgan mustaqil to'rtliklar lirik qo'shiq deyiladi.

Mehr baytlari – har kimning ko'nglidagisini ifodalagan yozma va og'zaki she'riy asarlardan ayrim bo'laklarni, maqbul baytlarni machit va madrasalar peshtoqiga, hashamatli uy va mehmonxona devorlariga yozish, turli xildagi palak va so'zanalarga kashtalash odati qadimdan bor. Bunday namunalarni biz shartli ravishda mehr baytlari deb atadik.[39]

Termalar – pand-nasihat, odob-axloq, soz va so'z haqida yaratilgan ijtimoiy hayotdagi turli hodisalar, shaxs va jonivorlarning ta'rifi yoki tanqidiga bag'ishlangan baxshilar tomonidan kuylanadigan 10-12 satrdan, 150-200, ba'zan undan ham ortiq misralargacha bo'lgan lirik, liroepik she'rlarga terma deyiladi.[40]

Mavsum bilan bog'liq marosim qo'shiqlari, mavsum-marosim qo'shiqlari hisoblanadi. Olima mavsum-marosim qo'shiqlariga "Yo ramazon", "Barot keldi", "Sust xotin", "Safar qochdi", "Badik", "Boychechak" qo'shiqlarini kiritadi.

To'y marosim jarayonida kuylanuvchi qo'shiqlar to'y marosim qo'shiqlariga hisoblanadi. Ularga "O'lan", "Lapar", "Bayt-g'azal", "Kelin salom", "Xush kelibsiz" qo'shiqlarini kiritgan.

O'zbek folklorshunosi B.Sarimsoqov esa o'zining marosim folkloriga bag'ishlangan monografiyasida mavsumiy marosimlar folklorini quyidagicha tasniflagan: 1) Qishki marosimlar folklori (yas-yusun va gap-gashtaklar); 2) Bahorgi marosimlar folklori (shox

[39] Alaviya M. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari. Toshkent. 1974. 100-b.
[40] Imomov K, Mirzayev T, Sarimsoqov B, Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. T., O'qituvchi. 1990. 169-b.

moylar, qo‘sh chiqarish, loy tutish, navro‘z bayrami, “Sust xotin”); 3) Yozgi marosimlar folklori (“Oblo baraka” va shamol chaqirish)[41].

Folklorshunos olim M.Jo‘raev o‘zbek mavsumiy marosim folklori tasniflari ichida quyidagi tasnifni ma’lum darajada mukammaligi, o‘zbek mavsumiy marosim folklorining ma’lum bo‘lgan barcha janrlarini qamrab olganligi bilan xarakterlanganligini qayd etadi.

O‘zbek mavsumiy marosim folklorini maxsus o‘rgangan yosh tadqiqotchi M.Pirmatova o‘zining dissertatsiya ishida folklorshunoslikda mavjud bo‘lgan ilmiy qarashlar va tasniflarni yaxlit holda umumlashtirib, quyidagi yangi tasnifni o‘rtaga tashladi: 1) *qamariy yil hisobi bilan bog‘liq folklor janrlari:* “barot keldi”, “yo ramazon”, “safar qochdi”, “oxir chorshanba”; 2) *yil fasllari bilan bog‘liq marosim folklori janrlari:* “yas-yusun”, “loy tutish”, “shox moylar” yoki “birinchi qo‘sh”, “qozon to‘ldi”, navro‘z, mehrjon, sumalak pishirish bilan bog‘liq marosimlar (“Ashshadarozi” o‘yini, “sumalak beviti”, “sumalak sayli”), “boychechak xabari” yoki “boychechak sayl”, “lola sayli”, “guli surx” sayli, “qizil gul sayli”, yomg‘ir yog‘dirish marosimi (“Sust xotin”, “Chala xotin”, “So‘z xotin”, “Chayla qozoq” va h.k.), shamol chaqirish (“yo Haydar”) va shamol to‘xtatish marosimlari (“Choy momo”, “Yalli momo”), “oblo baraka”, hosil bayramlari, “shohi naqshband”, “moshoba”; 3) *muchal hisobi bilan bog‘liq marosim folklori:* “muchal to‘yi”[42].

Dunyo xalqlarining deyarli barchasida marosim folklori ikki katta guruhga mavsum bilan bog‘liq marosimlar folklori va hech qanday mavsum bilan bog‘liq bo‘lmagan marosimlar folklori, boshqacha aytganda, oilaviy-maishiy marosimlar folkloriga ajraladi. Demak, o‘zbek marosim folklori hayotiy yo‘nalganligi, maqsadi jihatidan dastlab ikki katta turkumga – mavsumiy marosimlar folklori hamda oilaviy-maishiy marosimlar folkloriga bo‘linadi.[43]

Mavsum-marosim qo‘shiqlari ham ikki mavsum bilan bog‘liq marosim folklori janrlari hamda mavsumiy-mehnat marosimlari folkloriga bo‘linadi.[44]

Ko‘rinib turibdiki marosim qo‘shiqlari ham ushbu tasniflarga ko‘ra:

1. Mavsum-marosim qo‘shiqlari;
2. Oilaviy-maishiy marosim qo‘shiqlar kabi tasnif etiladi.

Mavsum-marosim qo‘shiqlari ham ikkiga:

1. Mavsum bilan bog‘liq marosim qo‘shiqlari. (“Qo‘sh haydash”, “Sust xotin”, “Lola sayli”, “Choy momo”, “Mayda”, “O‘roqchilar qo‘shig‘i”, “Yas-yusun” va hokazo).
2. Mavsumiy-mehnat marosimlar qo‘shiq va aytimlari. (“Loy tutish”, “Shoxmoylar”, “Oblo baraka”).

Oilaviy-maishiy marosim qo‘shiqlariga esa farzandning tug‘ilishi, xatna va nikoh to‘yi, motam-marosimi bilan bog‘liq yig‘i-yo‘qlov, motam yor-yorlari va shomon aytimlari bilan bog‘liq kinna, badikni kiritish mumkin.

Marosim folklori va uning ikki qismi – mavsumiy marosim va oilaviy marosimlar folklori har bir xalqning o‘zligini namoyon etuvchi tayanch manba hisoblanadi. O‘zbek xalqining mavsumiy va oilaviy marosimlari tizimi hamda folklorida uning olamni anglash,

[41] Jo‘rayev M. O‘zbek mavsum marosim folklori. T: Fan, 2008. 8-b.
[42] Jo‘rayev M. O‘zbek mavsum marosim folklori. T: Fan, 2008. 9-b.
[43] Sarimsoqov. B. «O‘zbek marosim folklori» T.: «Fan» nashiryoti. 1986. 30-b.
[44] Sarimsoqov. B. «O‘zbek marosim folklori» T.: «Fan» nashiryoti. 1986. 31-b.

unda insonning o‘rni va vazifasini belgilash bilan bog‘liq dunyoqarashlar aks etgan. Xalqning barcha hayotiy tajribalari, bilim va xulosalari avvalo ana shu mavsumiy, oilaviy marosimlar tizimi va unda kuylanuvchi folklor namunalarida mujassam etgan.

Filologiya fanlari doktori, professor J.Eshonqulov qo‘shiqlarni quyidagicha tasniflaydi.

Qo‘shiqlar ijro o‘rni, holati, musiqaga munosabati va badiiyatidan kelib chiqib: ijro o‘rni, poetik strukturasi, musiqiyligi va raqsga munosabatiga qarab tasnif etiladi.

Ijro o‘rniga qarab tasnif etilganda, qo‘shiqlar: marosim va nomarosim qo‘shiqlarga ajraladi. O‘z navbatida, marosim qo‘shiqlari ham ikki: mavsum-marosim va oilaviy-maishiy marosim qo‘shiqlariga bo‘linadi.[45]

Marosim qo‘shiqlarida inson hayotining eng muhim davrlari, burilish nuqtalari (tug‘ilish, balog‘at, uylanish, o‘lim) va ularning tabiatga munosabati o‘z aksini topgan bo‘lib, maishiy, psixologik hamda estetik funksiya ham bajarib keladi.[46]

Tadqiqotchi olimlar tomonidan o‘zbek marosim folklori ikki katta guruhga bo‘linganini o‘rganib chiqidik. Biz mazkur ikki guruhni asosiy uzvlaridan ekanligini rad etmagan marosim qo‘shiqlar tasnifiga diniy marosim qo‘shiqlarini ham kiritish lozim deb hisoblaymiz.

1. Mavsumiy-marosim qo‘shiqlari;
2. Oilaviy-maishiy marosim qo‘shiqlari;
3. Diniy marosim aytimlari.

O‘z navbatida mavsumiy-marosim qo‘shiqlari ham 2 katta guruhga:

1. Mavsum bilan bog‘liq qo‘shiqlar.
2. Mavsumiy-mehnat marosim qo‘shiqlar.

Oilaviy-maishiy marosim qo‘shiqlari ham 4 katta guruhga:

1. So‘zning magik qudratiga asoslangan marosim aytimlari.
2. Bolaning beshik davri marosim aytim va qo‘shiqlari.
3. To‘y marosim qo‘shiqlari.
4. Motam marosim qo‘shiqlari.

Diniy marosim aytimlari ham ikki guruhga bo‘lish mumkin:

1. Diniy marosim aytimlari.
2. Diniy mavzuli aytimlar.

Xalq qo‘shiqlari o‘zbek folklorshunosligida boshqa turlar singari o‘zining mustahkam mavqeyiga ega. Qo‘shiqning paydo bo‘lishiga bosh sabab inson kayfiyatidagi chuqur iztirob yoki to‘satdan paydo bo‘lgan ko‘tarinki ruhdir. Inson noxush damlarda sukut saqlaydi, hayolda vaziyat yechimini topishga urinadi. Bunday daqiqalarda mungli kuy tasalli beradi, ko‘ngilni biroz bo‘lsa - da yozadi. Xursandchilik onlarida esa sho‘x qo‘shiq, raqs hamrox bo‘ladi. Ayni ana shunday manfiy va musbat holatlar shaxs qalbida

[45] Eshonqulov J. Nomoddiy madaniy meros va o‘zbek xalq qo‘shiqlarining tadqiqi masalalari // «Nomoddiy madaniy merosni ta’lim tizimiga tatbiq etish» Respublika ilmiy-amaliy seminar materiallari. Mas’ul muh: Axmedova O.M. - Toshkent; Navro‘z- 2015. 24-b.

[46] Eshonqulov J. Nomoddiy madaniy meros va o‘zbek xalq qo‘shiqlarining tadqiqi masalalari // «Nomoddiy madaniy merosni ta’lim tizimiga tatbiq etish» Respublika ilmiy-amaliy seminar materiallari. Mas’ul muh: Axmedova O.M. - Toshkent; Navro‘z- 2015. 25-b.

lirik kechinmalarning paydo bo‘lishiga zamin hozirlaydi, oqibatda qo‘shiqning yaratilishiga sabab bo‘ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, xalq qo‘shiqlaridagi maishiy yo‘nalganlik va ijro o‘rni masalalari uning o‘ziga xosligini ko‘rsatib turuvchi omillardan hisoblanib, ularning tasnifida, eng avvalo har bir janrning yuzaga kelishi, taraqqiy etishi va bugungi jonli og‘zaki ijro jarayonidagi holati, poetik xususiyatlari, badiiy tasviriy vositalari, mifolgik tafakkur tabiati, obrazlar tizimi yaxlitlikda olib qaralishi zarur bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alaviya M. O‘zbek xalq qo‘shiqlari T. , 1959.
2. Mahmud Qoshg‘ariy. Devonu tug‘otit turk. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutalibov.
3. Musaqulov A.O‘zbek xalq lirikasi. T.: Fan, 2010.
4. Еремина В.И. Ритуал и фолклор. – Л.: Наука, 1991.
5. Mahmud Qoshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. 1 - tom. – T. : Fan, 1960.
6. Eshonqulov J. Nomoddiy madaniy meros va o‘zbek xalq qo‘shiqlarining tadqiqi masalalari // “Nomoddiy madaniy merosni ta’lim tizimiga tatbiq etish” Respublika ilmiy-amaliy seminar materiallari. Mas’ul muh: Axmedova O.M. - Toshkent; Navro‘z- 2015.
7. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. T. ; Musiqa, 2010.
8. Madayev O, Sobitova T. Xalq og‘zaki poetik ijodi. T;. Sharq , 2010. .
9. Sarimsoqov B. Qo‘shiqlar / O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – T. : O‘qituvchi, 1990.
10. Sarimsoqov. B. “O‘zbek marosim folklori”. T.: «Fan» nashiryoti. 1986.
11. Imomov K, Mirzayev T, Sarimsoqov B, Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. T., O‘qituvchi. 1990.
12. Jo‘rayev M. O‘zbek mavsum marosim folklori. T: Fan, 2008.